

Izboskan tumani XTMFMT va TE bo'limi tasarrufida №2-maktabning
MIG' fani o'qituvchi **OTAMIRZAEVA M** ning 7-sinflarda
Konstitutsiya Olamiga Sayohat

fanidan o'tkizgan

**Namunali
darsi**

7-sinf Konstitutsiya olamiga sayohat

Mavzu: Konstitutsiya - baxtimiz poydevori.

Maqsad; a) ta'limiy: o'quvchilarimizga **asosiy efitmufHrotz unflg mazrmm** mohiyati, huquq va burchlarimiz haqida bilimlar berish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda o'z haq-huquqlarini o'rganishga qiziqish,
davlatimiz qonunlaFiga hurmat va ularga **amal** qilish tuyg'ularini **tarbiyalash,**

c) rivojlantiruvchi: yoshlarda vatanparvarlik hissini, ularning huquqiy savodhonligini o'stirish.

Dars tipi: Yangi bilim va malakalar berish.

Dars turi: Noan'anaviy.

Usuli: interfaol suhbat, savol-javob, she'r*iy* kompozitsiya, bellashuv.

Jihozi: Darslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, rasmlar, plakat, yozuv, video proyektor, kompyuter.

Stiiorf: Kuch - adolatdadir.

Darsning boorish:

I. Tashkiliy davr: salomlashuv, davomat, kompyuterda davlatimiz madhiyasi eshtiladi. O'quvchilar birga kuylaydilar.

II. Kirish suhbat.

Mustaqilligimiz
ramzlari. Muhim
sanalar.
Ramzlar haqidagi sh'erlarva fikrlar aytiladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O'qituvchi: Aqlga tayangan qomusimiz bor,
Aql adolatni etur ustuvor.
Adolatli jamiyatga berganda
baho, **QotnusrmizfTodir, terrgsiz**
va a'to. Haq-huqungrz
himoyasida, Turgan asosiy
qonunimiz bor, Hayotimizning
har sohasida,

Qonun poydevor, qonun ustivor. O'quvchilar bugun sizlar bilan asosiy qonunimiz - Konstitutsiyamiz haqida suhbatlashamiz.

Savoliar:

1. Davlatimiz Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
2. Konstitutsiya qanday qismlardan tuzilgan?

3. Konstitutsiya mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
4. O'quvchilarga oid qanday moddalar bor?

Javoblarni umumlashtiraman.

Konstitutsiya bizning asosiy qonunimiz, huquq va burcni ta'minlash kafolatini hisoblanadi. U vatanimizni dunyoga tanitadigan, millatimizni tenglar ichra tengligini isbotlovchi hujjatdir. Inson o'z huquq va burchlarini yaxshi bilsa oldiga qo'ygan maqsadlarga erisha oladi va hayot qoqilmaydi.

Konstitutsiyamiz haqida prezidentimizni shunday fikrlari bor:

"Konstitutsiyamiz davlatni davlat, millatni millat qiluvchi asosiy qonuniy hujjatdir."

"Asosiy qonunimiz maqsadlarimiz va oliy janob intilishlarimizni amalga oshirish garovidir"

Video proyektor orqali o'quvchilarga tegishli bo'lgan moddalarni ko'rsatib o'tqizaman. O'quvchilar daftralariga yozib oladilar. So'ng, o'quvchilar o'zlari yod olgan moddalarni aytadilar. O'quvchilar tayyorlab kelgan she'riy kompozitsiyani namoyish etishadi:

1-o'quvchi: Baxtimizning qonuni,
Qalbimizning o'fotobi,
Boshimizdan nur
sochgan, Iqbolimiz
kitobi.

2-o'quvchi: Qayerda bo'lsak ham qonun hukmron,
Unda ardoqlanar inson degan nom, U
baxtimiz, erkimiz kafofatidir,
Kelajakga yozilgan qutlug' xatidir.

IV. Mustahkamlash.

**Sinfni 3 guruhga bo'lib "Kim ko'p modda biladi?"
bellashuvini o'tkazamiz. G'olib chiqqan guruh
Konstitutsiya kitobi bilan taqdirlanadi.**

V. Darsni yakunlash.

**O'quvchilarni Konstitutsiya bayrami bilan tabriklayman va
darsga qatnastigan o'quvchilarni bafiofayman.**

**VI. Vazifa. Konstitutsiya moddalaridan yod olish va
"Mening
huquqlarim" mavzusida insho yozish.**